ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ	1074
Хасилова Висола Шоохоровна	
HARD WORK, INDEBTEDNESS AND HOPE: A SOCIO-ECONOMIC LOOK OF MODERN LABOR	1078
Rakhmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
KORXONALARDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI VA ULARNI HISOBGA OLISH.....	1085
Muradova Minavvar Izzatullayevna	
O'ZBEKISTONDA AKT SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: SAMARADORLIKNI BAHOLASH VA RAQAMLASHTIRISHNING MUAMMOLARI	1089
Salibaev Xabibullo Negmatullaxanovich	



TIJORAT BANK KREDIT PORTFELINING SIFAT BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1094
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich, Amanova Xurshida Inyatullaevna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA O'ZINI-O'ZI BAND QILISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI PASAYTIRISH MASALALARI.....	1099
Azimova Hulkar Egamberdiyevna	
СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ КАК СОЦИАЛЬНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕФОРМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1103
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
IQTISODIY JARAYONLARNI BOSHQARISHDA OPTIMALLASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1108
Ibragimov Nodir Nusriddinovich	
MARKETINGDAGI ISTE'MOLCHILAR MOTIVATSIYASIDA NAFLILIK NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1113
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
AHOLI ZICH HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ANDIJON VILOYAT MISOLIDA.....	1119
Karimov Abdusamat Ismonovich, Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORINING SAVDO HAJMIGA TA'SIRINING TAHLILI.....	1125
Haydarova Mohichehra Xurram qizi	
BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	1131
Haydarov Husanboy Ahmadjon o'g'li	
DAVLAT QARZINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI.....	1135
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOT SANASIDAN KEYINGI HODISALAR AUDITI.....	1142
Muydinov Erkin Djumaldinovich	
AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	1148
Xamidov Anis Choriyevich	
BIOCHEMICAL CHANGES IN THE BODY DURING THE PERIOD OF FATIGUE AND REST AFTER WORK FOR ATHLETES.....	1153
Yoldasheva Roila Jumaevna, Ruyobova Shakhlo Anvar qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHGA OID XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR NAZARIYALARI VA YONDASHUVLARI.....	1159
Muradova Nazira Raximjanovna	
XORAZMDA IQTISODIY BARQARORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1165
Xudayorova Munira Omonboy qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA INNOVATSION BUXGALTERIYA HISOBINI JORIY ETISH.....	1170
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGI MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQ SOLISH BAZASINI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI.....	1175
Jononmirzayeva Dilafruz Ilhom qizi	
ИЗБАВЛЕНИЕ ОТ ИНФЛЯЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ МЕТОДОВ И МАТЕМАТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	1180
Абидов А.А., Ахраров Б.С., Паязов М.М., Ахмедов А.М.	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION BIZNES TASHABBUSLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI.....	1185
Karimova Mavjuda Boxodirovna	
INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YUQORI TEXNOLOGIYALI TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH.....	1189
Raxmatova Nargizaxon A'zamxonovna	



O'ZBEKISTONDA ELEKTRON PULGA O'TISH ISTIQBOLLARI, KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK	1195
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK BIZNES TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY XAVFSIZLIGI MASALALARI	1202
Anafiyayev Abdurashid Mamasidiqovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQUV XARAJATLARI HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH	1206
Xusnov Ibragim Ismoilovich	
ЭВОЛЮЦИЯ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ ТУРЦИИ В КОНТЕКСТЕ ИНТЕГРАЦИИ В ГЛОБАЛЬНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЦЕПОЧКИ	1210
Солиев Абдумаджид Джабборович	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOTI.....	1215
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Boymuradov Normurod Abdusodikovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA MOLIVAVIY HIMOLA XIZMATLARI KO'RSATISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1220
G'aniyeva Nozima Alijon qizi	
ОЦЕНКА ПОТЕНЦИАЛА КЛАСТЕРИЗАЦИИ КОКОНОПЕРЕРАБАТЫВАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ШЕЛКОВОМ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА.....	1225
Ходжиматов Равшанбек Расулжанович	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLANISHINING XORIY TAJRIBASI	1231
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
TEMIR YO'L TRANSPORTI KORXONALARIDA MOLIVAVIY-IQTISODIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN KONTROLLING VOSITALARINI JORIY ETISH.....	1236
Kayumov Zafarbek Odil o'g'li	
BANK HR JARAYONLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1243
D. Djabbarova	
MEHNAT BOZORIDA NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI	1247
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
IJTIMOY XIZMATLAR TIZIMIDA DAVLAT VA NODAVLAT SEKTORINING O'ZARO ALOQASI HAMDA XORIYIY TAJRIBA TAHLILI.....	1251
Berdiyeva Nafisa Qahramonovna	
ПРИМЕНЕНИЕ КОНТРОЛЛИНГА В ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА	1257
Каямов Зафарбек Одил угли	
BILVOSITA SOLIQLAR HISOBINI TASHKIL ETISHDA SOLIQ NAZORATINING AHAMIYATI	1263
Djalilov Rahmonkul Hamidovich	
INVESTITSION FAOLIYATNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING SANOAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	1268
Yuldoshev Sobir Fayzullayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINING TAQSIMOT TAHLILI.....	1272
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING XORIY TAJRIBASI.....	1277
Raxmatova Shaxnoza Rustamovna, Ochilova Dilnoza Ismoil qizi	
ФОРМИРОВАНИЯ УСТОЙЧИВОЙ ЗАНЯТОСТИ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ	1283
Б.С. Разакова	
ZAMONAVIY TURISTIK KLASSTERLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1289
Azim Pulatov	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR BANDLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI VA DAVLAT SIYOSATINING SAMARADORLIGI	1296
Qodirov Baxodirjon Shuhratovich	



YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SANOAT KORXONALARINING ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI	1302
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
ONLAYN TA'LIM PLATFORMALARI INTERAKTIV CHATBOTLARI SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	1306
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Yusupova Asila Xidirqul qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN USLUBIYOTI	1313
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA IQTISODIY MUTANOSIBLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI	1320
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHNI MOLIVAVIY MANBALARI	1327
Mansurov Mansur Alisherovich, Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MONETAR SIYOSATNING TRANSMISSIYA MEXANIZMLARI SAMARADORLIGI	1330
Boltayeva Nilufar Shavkat qizi	
HUDUDIIY TURIZM RIVOJLANISHIDA BARQAROR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	1336
Barakayev Elbekjon Abdulla o'g'li	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI JORIY ETISH	1343
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	
ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA BOSHQARUV XODIMLARI QOBILIYATLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KORXONA SALOHİYATINI YUKSALTIRISH YO'LLARI	1348
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
INTEGRATSIYALASHGAN XARAJATLAR TAHLILI: ISHLAB CHIQUARISH VA LOGISTIKA XARAJATLARINING MAHSULOT TANNARXIGA TA'SIRI	1353
Zokirjonov Asadbek Otabek o'g'li, Xashimova Zuhraxon Kahramonovna	
QASHQADARYO VILOYATI SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNI EKONOMETRIK MODELLAR YORDAMIDA BAHOLASH	1358
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR TA'MINOTIGA OTA-ONALAR TOMONIDAN HAQ TO'LASH VA UNDAN FOYDALANISH TARTIBINING BUXGALTERIYA HISOBI	1361
Ro'ziboyev Oybek Baxromovich	
KICHIK BIZNESNING HUDUDIIY ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRI	1367
Qulmatov Alimjan Abdulloyevich	
INDUSTRIYA 4.0 SHAROITIDA KASBLAR TARKIBI TUZILMASI VA KOMPETENSIYALAR TRANSFORMATSIYASI	1371
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
RAQAMLI IDENTIFIKATSIYA (E-ID) TIZIMINING G'AZNACHILIK OPERATSIYALARIDA QO'LLANISH ISTIQBOLLARI	1375
Raximov Shaxzod Maxsudjanovich	
IQTISODIYOTNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARINING INVESTITION FAOLIYATINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH	1380
Kasimova Nozima Omilovna	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE EFFECTIVE PERFORMANCE OF AN INDUSTRIAL ENTERPRISE IN THE CONTEXT OF INDUSTRY 4.0	1384
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
TEACHING PROGRAMMING COLLABORATIVELY THROUGH GOOGLE COLAB AND GITHUB INTEGRATION	1388
Saidova Difuza Ergashovna	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	1392
Djumayev Zayniddin Axmedovich	



ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА: КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА И КЛЮЧЕВЫЕ ОРИЕНТИРЫ	1397
Киличева Феруза Бешимовна	
ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНСТИТУЦИОННЫХ НОРМ О СОБСТВЕННОСТИ И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СВОБОДЕ В УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА	1401
Абдуллаева Мавлюда Садыковна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI INNOVATSION IQTISODIYOTDA QO'LLAB-QUVVATLASH STRATEGIYALARI.....	1407
Mirzaaxmedov Nodirbek Shavkatovich	
KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI TAHLIL QILISH VA MARKETING STRATEGIYASINI TANLASH	1414
Yoqubjonova Dildora Timur qizi	
TURISTIK XIZMATLAR BOZORINING XUSUSIYATLARI VA BRENDLASH IMKONIYATLARI	1420
Yusupova Moxinur Farxod qizi	
TA'LIM TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY AKTIVLARNI BOSHQARISH.....	1428
Meliboyev Ibroxim Mavlon o'g'li	
SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISHDA XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTONGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI.....	1432
Kodirov Aqliddin Hakim o'g'li	
AVTOMOBIL SAVDOSIDA ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARINING QO'LLANILISHI	1437
Adamboyev Abror Akrom o'g'li, Akramov T.A.	
CHARM-POYABZAL KORXONALARIDA RESURSLARDAN MUQOBIL FOYDALANISH SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH	1443
Otaniyozov Orifjon Otaxonovich	



UO'K 005.93:655

CHARM-POYABZAL KORXONALARIDA RESURSLARDAN MUQOBIL FOYDALANISH SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH

Otaniyozov Orifjon Otaxonovich

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti mustaqil izlanuvchisi.

E-mail: orifdjon@gmail.com

ORCID: 0009-0001-6252-0701

Annotatsiya. Maqolada charm-poyabzal korxonalarida cheklangan resurslar sharoitida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida sof foyda ko'rsatkichiga ta'sir qiluvchi omillarning ekonometrik modeli ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari korxonalarda resurslardan muqobil foydalanishning samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy samaradorlik, samara, sanoat korxonasi, korrelyatsion–regression tahlil, model, prognozlashtirish.

Abstract. The article develops an econometric model of factors influencing the net profit indicator in order to identify opportunities for improving the economic efficiency of production under limited resources in leather and footwear enterprises. The research results provide practical recommendations aimed at enhancing the effective use of resources in industrial enterprises.

Key words: economic efficiency, efficiency, industrial enterprise, correlation–regression analysis, model, forecasting.

Аннотация. В статье разработана эконометрическая модель факторов, влияющих на показатель чистой прибыли, с целью выявления возможностей повышения экономической эффективности производства в условиях ограниченных ресурсов на кожевенно-обувных предприятиях. Полученные результаты могут быть использованы для разработки практических рекомендаций по повышению эффективности использования ресурсов на промышленных предприятиях.

Ключевые слова: экономическая эффективность, эффективность, промышленное предприятие, корреляционно-регрессионный анализ, модель, прогнозирование.

KIRISH

Hozirgi kunda jahon charm-poyabzal mahsulotlari bozorida keskin raqobat kuchayib bormoqda. Raqobat ishtirokchilari o'z ustunliklarini ta'minlash maqsadida, ayniqsa cheklangan resurslar mavjudligi sharoitida, ishlab chiqarish omillaridan oqilona foydalanishga alohida e'tibor qaratmoqda. Raqobatbardoshlikni oshirishda "xarajat–samara" konsepsiyasiga tayangan holda, bir birlik mahsulotni sifatdan chekinmagan holda ishlab chiqarish, resurslardan me'yor darajasida foydalanish hamda arzon va sifatli xomashyoga ega bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois respublikamizda charm-poyabzal sanoatini rivojlantirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligini oshirishga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur sohani istiqbolda samarali rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda resurslardan muqobil foydalanish imkoniyatlarini aniqlashda zamonaviy iqtisodiy-matematik usullar asosida prognozlash masalasi dolzarb hisoblanadi. Bunda charm-poyabzal korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlarini ilmiy asosda bashorat qilish sanoat tarmog'ining barqaror o'sishiga xizmat qiladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda foydalanilmayotgan ichki imkoniyatlarni aniqlash, ularni samarali yo'naltirish hamda iqtisodiy jarayonlarning samaradorligini oshirishda "iqtisodiy samaradorlik" tushunchasiga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Mazkur iqtisodiy kategoriya mohiyatini ochib berishda turli mualliflar tomonidan turli ilmiy yondashuvlar ilgari surilgan.

Xorijlik olim M.P. Todaro (2017) fikriga ko'ra: "Iqtisodiy samaradorlik — samarali talabning mavjudligini inobatga olgan holda, resurs tejamkor texnologiyalar yordamida mahsulotning maksimal mumkin bo'lgan qiymatini ishlab chiqarish jarayonidir."

K.R. Makkonell va S.L. Bryu (2011) o'zlarining "Economics" asarida iqtisodiy samaradorlikni quyidagicha izohlaydi: "iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish jarayonida foydalanilayotgan nodir resurslar miqdori hamda ular asosida yaratilgan mahsulot o'rtasidagi nisbatni ifodalovchi iqtisodiy kategoriyadir."

Mahalliy tadqiqotchilardan R.A. Isayev (2021) korxonalar iqtisodiy samaradorligini oshirishda sifat menejmenti va strategik boshqaruvning integratsiyalashgan yondashuvini o'rganib, ushbu jarayonda strategik rejalashtirishning muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslab bergan.

Bundan tashqari, respublikamiz olimlari to'qimachilik va charm-poyabzal sanoatini iqtisodiy-matematik modellashtrish hamda prognozlashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Jumladan, N.M. Muminova (2023) tomonidan O'zbekiston tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish tarmog'i rivojlanishining ko'p omilli ekonometrik modeli ishlab chiqilgan.

Shuningdek, B.S. Boratov (2024) tomonidan "SANAM" MChJ faoliyati misolida ko'ylakbop mato ishlab chiqarishda muqobil xomashyo tarkibini tanlashning foyda miqdorini maksimallashtirish mezoniga asoslangan maqsad funksiyasi shakllantirilib, korxona faoliyatining barqaror rivojlanish imkoniyatini asoslaydigan ekonometrik model taklif etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda charm-poyabzal sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholashda zamonaviy iqtisodiy-matematik yondashuvlar, iqtisodiy tahlilning umumiy tamoyillari hamda iqtisodiy-statistik usullar uyg'unlashtirilgan holda qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik bazasi sifatida sanoat korxonalarida resurslardan oqilona foydalanish, sof foyda shakllanishi hamda ishlab chiqarish samaradorligining omilli tarkibini tahlil qilishga yo'naltirilgan konseptual yondashuvlar asos qilib olindi.

Ushbu ilmiy tadqiqotning metodologik asosi sifatida dialektik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida tanlab kuzatish, taqqoslash hamda ekspertlar baholashi usullaridan foydalanilib, charm-poyabzal korxonalarining iqtisodiy samaradorligini prognozlashga oid ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqildi.

Shuningdek, tadqiqot davomida korxonalarning sof foydasi va uni shakllantiruvchi omillar o'rtasidagi funksional bog'liqlikni aniqlashda korrelyatsion–regressiya tahlili, ekonometrik modellashtrish, trend tahlili, prognozlash usullari qo'llanildi. Hisob-kitoblar EViews, MS Excel dasturlari yordamida amalga oshirilib, statistik ko'rsatkichlarning ishonchliligi Fisher, Styudent, Durbin–Watson mezonlari orqali baholandi. Natijalar tarmoq korxonalarida resurslardan samarali foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga metodologik asos yaratdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — mavjud makro va mikroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida O'zbekistonda charm-poyabzal sanoati rivojlanishining ko'p omilli ekonometrik modelini ishlab chiqish va uning asosida tahliliy natijalarga erishishdan iborat.

Tadqiqot jarayonida sanoat tarmog'ida faoliyat yuritayotgan "Blackstone" MChJ hamda "Umid Fashion Grand" XK korxonalarining moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Ushbu korxonalar misolida tegishli ko'p omilli ekonometrik modellar shakllantirildi va ularning iqtisodiy samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rganildi.

Korxonalar faoliyatining natijaviy samaradorlik ko'rsatkichi sifatida sof foyda (Y), ming so'm miqdorida olindi. Ta'sir etuvchi omillar sifatida quyidagi iqtisodiy ko'rsatkichlar tanlandi:

- korxonalarga kiritilgan investitsiyalar hajmi, mln so'm (X_1);
- ish haqi miqdori, ming so'm (X_2);
- ishchilar soni, nafar (X_3);
- ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, ming so'm (X_4);
- xarajatlar miqdori, ming so'm (X_5).

Ma'lumotlar 2020–2024-yillar choraklar kesimida yig'ildi. Ko'rsatkichlar o'lchov birliklarining turlicha bo'lgani hisobga olinib, ularning logarifmlangan qiymatlari ishlatildi. Bu esa modelning statistik barqarorligini ta'minlash va tahlil natijalarining aniqligini oshirishga xizmat qildi (1-jadval).



1-jadval. Ko'p omilli ekonometrik modelga kiritilgan omillar bo'yicha tavsifiy statistik natijalar

	LNy	LNx1	LNx2	LNx3	LNx4	LNx5
"Blackstone" MChJ						
Mean	10.99721	1.498901	15.13483	4.035436	12.63446	8.760335
Median	11.27584	1.609438	15.13865	4.025192	12.17413	8.517455
Maximum	11.49100	1.791759	15.16135	4.127134	14.60186	10.07248
Minimum	9.595011	1.098612	15.09509	3.931826	11.54869	7.616284
Std.Dev.	0.662649	0.231816	0.018008	0.061826	1.043206	0.916376
Skewns	-0.179264	0.637753	1.212167	-0.015828	-1.445394	0.443166
Kurtos	2.080936	2.698654	2.579900	3.417447	5.070881	2.283574
Jarque-Bera	4.297628	3.990300	8.071833	10.23368	16.86027	6.731800
Probabilty	0.045665	0.048176	0.017669	0.000725	0.000218	0.028673
Observatis	20	20	20	20	20	20
"Umid Fashion Grand" XK						
Mean	13.55284	2.702229	13.91147	4.241195	15.09062	10.88269
Median	13.55344	2.740319	13.83411	4.255588	15.43366	10.90421
Maximum	13.84963	2.833213	14.31644	4.330733	16.55054	12.02391
Minimum	13.27516	2.484907	13.68152	4.143135	13.37073	9.761578
Std. Dev.	0.182381	0.114055	0.201617	0.054032	1.248728	0.749809
Skewness	2.187649	1.259544	1.837711	-0.577879	1.191204	1.234875
Kurtosis	5.941688	4.078376	4.934182	1.680937	3.897094	2.314521
Jarque-Bera	9.265588	7.502900	5.749930	5.025235	4.960215	5.238412
Probability	0.009728	0.016090	0.043418	0.048926	0.041559	0.037652
Observations	20	20	20	20	20	20

Korxonalar bo'yicha mavjud ma'lumotlar asosida ekonometrik tadqiqotlarni amalga oshirishdan avval ularning iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha tavsifiy statistika tahlili o'tkazildi. "Blackstone" MChJ va "Umid Fashion Grand" XK korxonalariga tegishli tavsifiy statistik natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, har bir omil bo'yicha o'rtacha qiymat (Mean), median qiymat (Median) hamda maksimal (Maximum) va minimal (Minimum) ko'rsatkichlar aniqlangan. Shuningdek, omillarning standart chetlanish (Std. Dev.) qiymatlari ham berilgan. Standart chetlanish ko'rsatkichi har bir o'zgaruvchining o'rtacha qiymatdan qanchalik og'ishganini ifodalaydi va ma'lumotlar barqarorligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Ko'p omilli ekonometrik modelga omillarni tanlashda omillar orasidagi o'zaro bog'liqlik darajasini aniqlash muhim sanaladi. Shu bois, keyingi bosqichda omillar o'rtasida juft va xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari hisoblanib, korrelyatsion tahlil o'tkaziladi. Bu esa model uchun eng maqsadga muvofiq o'zgaruvchilarni tanlashga xizmat qiladi.

Keyingi bosqichda "Blackstone" MChJ va "Umid Fashion Grand" XK korxonalarining sof foydasi bo'yicha ko'p omilli ekonometrik model shakllantiriladi. Umumiy ko'rinishda ko'p omilli ekonometrik model quyidagi tenglama orqali ifodalanadi:

$$h \ y = h \ \beta_0 + \beta_1 h \ x_1 + \beta_2 h \ x_2 + \dots + \beta_n h \ x_n + \varepsilon, \quad (1)$$

Bu yerda:

$h \ y$ – natijaviy (bog'liq) o'zgaruvchi;

$h \ x_i$ - ta'sir etuvchi (mustaqil) omillar;

ε - tasodifiy xato (qoldiq) hadi.

Ko'p omilli ekonometrik modeldagi (1)-tenglama parametrlarini aniqlashda eng kichik kvadratlar usuli (EKKU) qo'llanildi. Modelning noma'lum parametrlarini hisoblash jarayonida EViews dasturidan foydalanildi. Ushbu hisob-kitob natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. Ko'p omilli ekonometrik modelning hisoblangan parametrlari

O'zgaruvchi	"Blackstone" MChJ modeli	"Umid Fashion Grand" XK modeli
	Coefficient p-value	Coefficient p-value
$\ln X_1$	0.190508 0.0569**	0.263235 0.0392***
$\ln X_2$	1.451489 0.0510**	0.028918 0.0535**
$\ln X_3$	1.101227 0.0014***	0.741629 0.0738**
$\ln X_4$	0.405555 0.0000***	0.150037 0.0301***
$\ln X_5$	-1.008263 0.0540**	-0.489105 0.0853**
C (konstant)	2.008161 0.0983**	13.33058 0.0133***
R-squared	0.937632	0.871322
Adjusted R-squared	0.918062	0.764090
F-statistic	73.16269	8.125607
Durbin-Watson stat.	2.285807	2.567062

Izoh: *** - 0,05 aniqlikda, ** - 0,1 aniqlikda.

2-jadval ma'lumotlari asosida ko'p omilli ekonometrik modelning analitik ko'rinishi quyidagicha ifodalanadi.

1) "Blackstone" MChJ bo'yicha ko'p omilli ekonometrik model quyidagicha:

$$\hat{y} = \ln(2,008) + 0,191 \ln(X_1) + 1,452 \ln(X_2) + 1,101 \ln(X_3) + 0,403 \ln(X_4) - 1,008 \ln(X_5) \quad (2)$$

2) "Umid Fashion Grand" XK bo'yicha ko'p omilli ekonometrik model:

$$\hat{y} = \ln(3,331) + 0,263 \ln(X_1) + 0,029 \ln(X_2) + 0,742 \ln(X_3) + 0,150 \ln(X_4) - 0,489 \ln(X_5) \quad (3)$$

Ko'p omilli ekonometrik modellar (2) va (3) sifatini baholashda determinatsiya koeffitsiyentidan foydalaniladi. Ushbu ko'rsatkich natijaviy omilning necha foizi modelga kiritilgan omillar tomonidan izohlanishini bildiradi.

- "Blackstone" MChJ uchun hisoblangan determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0.9376$ ga teng. Bu sof foydaning 93,76 foizi modelga kiritilgan omillar ta'siri ostida shakllanishini anglatadi. Qolgan 6,24 foizi (1-0,9376) modelga kiritilmagan boshqa omillar ta'sirini ifodalaydi.

- "Umid Fashion Grand" XK uchun esa determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0.8713$ ga teng. Bu sof foydaning 87,13 foizi (3)-modeldagi omillar bilan izohlanishini ko'rsatadi. Qolgan 12,87 foizi (1-0,8713) hisobga olinmagan omillar ta'siriga to'g'ri keladi.

Har ikkala model uchun R^2 qiymatlarining yuqoriligi hisoblangan modellarni prognozlash va tahlil qilish uchun ishonchli ekanini tasdiqlaydi.

"Umid Fashion Grand" XK korxonasi bo'yicha hisoblangan determinatsiya koeffitsiyenti ($R^2 = 0,8713$) ga teng. Bu natija korxonaning sof foydasi ($\ln Y$) ning 87,13 foizi ko'p omilli ekonometrik modelga kiritilgan omillar ta'siri bilan izohlanishini bildiradi. Qolgan 12,87 foiz (1,0 - 0,8713) esa modelga kiritilmagan boshqa omillar ta'siridir. Ushbu ko'rsatkich modelning real jarayonni yetarli darajada aks ettirishini ko'rsatadi.

Ko'p omilli ekonometrik modellar (2) va (3) statistik ahamiyatini tekshirishda Fisherning F-mezoni qo'llaniladi. Bunda F-mezonning hisoblangan qiymati uning jadval qiymati bilan solishtiriladi. Agar:

$$F_{\text{hisob}} > F_{\text{jadval}}$$

sharti bajarilsa, model statistik ahamiyatli deb e'tirof etiladi.

Tadqiqotda foydalanilgan jadval qiymati $F_{\text{jadval}} = 2,96$ ga teng. "Blackstone" MChJ va "Umid Fashion Grand" XK korxonalari bo'yicha hisoblangan $F_{\text{hisob}} > F_{\text{jadval}}$ sharti bajarilgani sababli, (2)-(3) ko'p omilli ekonometrik modellar statistik jihatdan ahamiyatli va o'rganilayotgan jarayonga adekvat ekanligi aniqlanadi.

Ko'p omilli ekonometrik modellar (2)-(3) bo'yicha hisoblangan parametrlar (regressiya koeffitsiyentlari) ning ishonchliligini baholashda Styudentning t-mezoni qo'llaniladi. Hisob-kitob natijalaridan ko'rinishicha,



“Blackstone” MChJ va “Umid Fashion Grand” XK korxonalariga tegishli barcha omillar bo'yicha t-mezonning hisoblangan qiymatlari t-jadval qiymatlaridan katta. Bu holat ko'rsatkichlarning modelda ishtirok etishi statistik jihatdan asosli ekanini bildiradi. Ya'ni, mazkur omillar sof foydaga ta'sir qiluvchi muhim omillar sifatida ko'p omilli ekonometrik modelda ishonchli tarzda qo'llanishi mumkin.

Tadqiq qilinayotgan korxonalar ko'rsatkichlarini kelgusi davrlarga prognozlash uchun keyingi bosqichda omillar bo'yicha trend modellari tuziladi. Trend model — bu ta'sir etuvchi omilning vaqt bo'yicha o'zgarishini ifodalovchi funktsiya bo'lib, umumiy ko'rinishi quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$\ln X_t = \ln(\beta_0) + \beta_1 \cdot t + \varepsilon \quad (4)$$

Bu yerda:

X_t — vaqtga bog'liq omil qiymati;

a va b — trend parametrlaridir;

t — vaqt ko'rsatkichi;

ε — tasodifiy xato hadidir.

“Blackstone” MChJ korxonasi bo'yicha trend modellari natijalari 3-jadvalda keltirilgan (3-jadval).

3-jadval. “Blackstone” MChJ ko'rsatkichlari bo'yicha trend modellari va ularning hisoblangan parametrlari

№	Trend modeli	R ²	F-mezon	t-mezon
1.	$\ln X_1 = \ln(1,2517) + 0,0046 \cdot t$	0,7927	16,127	3,114
2.	$\ln X_2 = \ln(16,107) + 0,0028 \cdot t$	0,6821	19,522	4,627
3.	$\ln X_3 = \ln(4,6241) + 0,0071 \cdot t$	0,9501	127,17	12,42
4.	$\ln X_4 = \ln(11,012) + 0,2081 \cdot t$	0,8742	53,214	8,264
5.	$\ln X_5 = \ln(6,2218) + 0,1974 \cdot t$	0,7907	43,052	7,021

“Umid Fashion Grand” XK korxonasi ko'rsatkichlari bo'yicha trend modellar natijalari 4-jadvalda keltirilgan. Tadqiq etilayotgan har ikki korxona bo'yicha ta'sir etuvchi omillar va vaqt omili o'rtasida tuzilgan trend modellar tahlili shuni ko'rsatadiki (3–4-jadvallar), trend modellardagi barcha hisoblangan koeffitsiyentlar statistik jihatdan ahamiyatli bo'lib, ularning parametrlari ishonchli eksperimental baholangan (4-jadval).

4-jadval. “Umid fashion grand” XK korxonasi ko'rsatkichlari bo'yicha trend modellar va ularning hisoblangan parametrlari

№	Trend model	R ²	F-mezon	t-mezon
1.	$\ln X_1 = \ln(1,9821) + 0,0046 \cdot t$	0,7013	29,547	5,866
2.	$\ln X_2 = \ln(12,923) + 0,0143 \cdot t$	0,6941	35,216	8,641
3.	$\ln X_3 = \ln(3,9527) + 0,0084 \cdot t$	0,8229	36,225	3,214
4.	$\ln X_4 = \ln(11,857) + 0,3017 \cdot t$	0,8923	97,213	10,12
5.	$\ln X_5 = \ln(10,123) + 0,1841 \cdot t$	0,6492	228,61	16,03

Demak, (3–4 jadvallardagi) trend modellarini hisoblaymiz va ularning hisoblangan qiymatlarini 2 ta korxona bo'yicha tuzilgan (2-3) ko'p omilli ekonometrik modelga qo'yib, avvalo ta'sir etuvchi omillarning ($\ln X_j$) prognoz qiymatlarini, keyin esa natijaviy omillarning ($\ln Y$) prognoz hisob-kitoblarini amalga oshiramiz (5-jadval).

5-jadval. “Blackstone” MChJ va “Umid fashion grand” XK korxonasi sof foydasining 2025-2030 yillarga prognoz qiymatlari

Yillar	“Blackstone” MCHJ sof foydasi, ming so'm	“Umid fashion grand” XK sof foydasi, ming so'm
2021	338810,4	2608826,0
2022	325370,0	3086301,1
2023	167201,6	3674055,1
2024	1131738,8	4430501,6
2025*	1376432,0	5583028,7
2026*	1674105,0	7040048,1



2027*	2036317,0	8877300,0
2028*	2476474,0	11192459,1
2029*	2996534,0	14102498,5
2030*	3643785,0	17769148,1

Izoh: * prognoz davri

Natijada ikki korxona bo'yicha sof foydaning (lnY) (3)–(4) ko'p omilli ekonometrik modellariga kiritilgan o'zgaruvchilarning prognoz davridagi qiymatlari aniqlanadi. Ushbu prognoz ko'rsatkichlari 5-jadvalda keltiriladi. Logarifmlangan qiymatlar prognozdan so'ng potentsiyal (eksponent) shaklga o'tkazilib, sof foydaning natural ko'rinishi hisoblab chiqiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlil va prognoz natijalariga asoslanib, tadqiqot qamrovidagi korxonalarning sof foydasi kelgusi davrda o'sishi kutilmoqda. Xususan, "Blackstone" MChJ faoliyatida 2024-yil bilan solishtirganda 2030-yilga kelib sof foyda 2 512 046,2 ming so'mga ortishi mumkin. Agar mavjud iqtisodiy tendensiyalar saqlanib qolsa, korxona sof foydasining o'rtacha yillik o'sish sur'ati 21,6 foiz atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda.

"Umid Fashion Grand" XK korxonasi bo'yicha esa 2030-yilda sof foyda 2024-yilga nisbatan 13 338 646,5 ming so'mga oshishi kutilmoqda. Mazkur davrda amaldagi tendensiyalarning davom etishi korxona sof foydasining o'rtacha yillik o'sish sur'atini 26,0 foiz darajasida shakllantirishi mumkin.

Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, korxonalarda mavjud resurslardan oqilona foydalanish, xomashyo xarajatlarini optimallashtirish, mehnat unumdorligini oshirish hamda investitsiyalar hajmini oshirish sof foydaning barqaror o'sishiga xizmat qiluvchi asosiy omillar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Исаев Д., Духонин Е., Мостовой Э. Управление эффективностью бизнеса. Концепция Business Performance Management. — М.: Альпина Паблишер, 2019. — 288 с.
- Выварец А.Д., Дистергефт Л.В. Эффективность производства: теория, методология и методика оценки // Экономическая эффективность: теория, методология, практика. Сборник научных статей. — Екатеринбург: УГТУ, 2020. — С. 3–23.
- Пардаев М.Қ., Абдукаримов А. Корхонанинг иқтисодий салоҳияти таҳлили. — Самарқанд: СамИСИ, 2007. — 154 б.
- Абдуллаев Ё.А. Макроиқтисодий статистика. — Тошкент: Меҳнат, 1998. — Б. 210–211.
- Тодаро М.П. Экономическое развитие / Пер. с англ.; под ред. С.М. Яковлева, Л.З. Зевина. — М., 2017. — 546 с.
- Макконнел К.Р., Брю С.Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. Учебник. 17-е изд. — М.: ИНФРА-М, 2011. — 916 с.
- Исаев Р.А. Тўқимачилик саноати корхоналарида интеграциялашган сифат менежменти ва стратегик бошқариш тизимининг концептуал асослари // Бизнес-эксперт. — Тошкент, №3. — 2021. — Б. 7–9.
- Муминова Н.М. Маркетинг стратегиялари асосида тўқув-трикотаж маҳсулотларига талабни шакллантириш ва сотишни рағбатлантириш тизимини такомиллаштириш. Иқтисод фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган автореферат. — Тошкент: ТДИУ, 2023. — 36 б.
- Borotov B.S. To'qimachilik korxonalari rivojlanishini boshqarishda biznes-modellarini qo'llash. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferat. — Toshkent: TDIU, 2024. — 24 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
